

Davriy

429990 - X

Davriy nashrlarga obuna qilish va yetkazib berish bo'yicha
Shartnoma

2022 yil 29. Iyun

Nukus sh.

"O'zbekiston pochtasi" AJ nomidan filiali Nizomi asosida ish yurituvchi direktor matnda "Yetkazib beruvchi" deb nomlanuvchi bir tomonidan Muhammad al-Korasoniy nomidagi O'zbekiston pochtasi nomidan Nizomi asosida ish yurituvchi B.T. Karipbergenov matnda "Obunachi" deb nomlanuvchi ikkinchi tomonidan quyidagi shartnomani tuzdilar.

1. ShARTNOMA PREDMETI

1.1. "Yetkazib beruvchi", "Obunachi"ning talabiga ko'ra O'zbekiston Respublikasi va xorijiy davlatlarda chop etiladigan, "Yetkazib beruvchi"ning obuna katalogiga kiritilgan davriy nashrlarga (bundan buyon tovar) obuna rasmiylashtirish va yetkazib berish majburiyatini oladi, "Obunachi" bo'lsa tovari qabul qilish va ushbu shartnoma shartlariga nazarda tutilgan shartlar va tartibda tovar hamda yetkazib berish xizmati uchun to'lash majburiyatini oladi.

Ushbu shartnoma doirasida tovar deganda davriy bosma nashrlar - gazeta, jurnal yoki doimiy nom(nom), joriy raqamga ega bo'lgan va yiliga kamida bir marta chop etiladigan boshqa nashr tushuniladi.

1.2. Ushbu shartnoma bo'yicha tovarlar o'lchov birligi sifatida kalendar oy ichida chiqadigan bir davriy nashrnning tovarlar partiyasi tushuniladi.

1.3. Tovar va xizmatlarning aniq nomi, narxi va boshqa parametrlari shartnomaning ajralmas qismi hisoblangan ilovadagi buyurtmanomaga asosan belgilanadi. Tovarlar partiyasining narxi ushbu shartnomaning butun muddati uchun belgilanadi va buyurtmanomada ko'rsatiladi.

1.4. Mazkur shartnoma bo'yicha tovarlarni yetkazib berish muddati 2021 yildan 31.12.2022 yilgacha.

1.5. "Yetkazib beruvchi" davriy nashr chop etilgan kundan boshlab tovari "Obunachi"ga qisqa vaqt ichida yetkazib berish uchun barcha sa'sy-harakatlarni amalga oshirishni o'z zimmasiga oladi.

1.6. Shartnoma bo'yicha xisobot davri 1 (bir) kalendar oy.

2. TOMONLARNING HUQUQ VA MAJBURIYATLARI

2.1. "Yetkazib beruvchi"ning majburiyatları:

2.1.1. Tovarni "Obunachi"ga shartnomada belgilangan tartibda va muddatlarda yetkazib beradi.

2.1.2. "Obunachi"ga hisobot davrida yetkazib berilgan tovar partiyalari va yetkazib berish xizmati uchun o'rnatilgan tartibda schyot-faktura taqdim qiliadi.

2.1.3. Tovarlarni nashriyot tomonidan belgilangan chiqish davriyligiga muvofiq yetkazib berish. Tovarlarni yetkazib berish "Yetkazib beruvchi" tomonidan ish kunlari amalga oshiriladi.

2.1.4. "Obunachi"dan tovari topshirish qabul qilishda miqdori va sifati bo'yicha farq haqida dalolatnama taqdim qilinganda, "Yetkazib beruvchi" qonun hujjatlari belgilangan muddatda "Obunachi"ning huquqiy talablarini bajaradi.

2.1.5. Hisobot oyi davomida qonun hujjatlari talablariga muvofiq tovarlarni o'rnatilgan tartibda yetkazib berilishi bilan bog'liq "Obunachi"ning talablarini bajaradi.

2.1.6. "Obunachi" tomonidan nuqsonli yoki yaroqsiz tovari almashtirib berish talab qilinganda, so'rov taqdim etilgan kundan boshlab yigirma kun ichida almashtiriladi.

2.2. "Yetkazib beruvchi"ning huquqlari:

2.2.1. Ushbu shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini sifatli bajarish uchun shartnoma bilan bog'liq masalalar bo'yicha axborot va boshqa ma'lumotlarni obunachidan og'zaki yoki yozma ko'rinishda olish.

2.3. "Obunachi"ning majburiyatları:

2.3.1. Yetkazib berilgan tovari qabul qilish yoki qabul qilishdan bosh tortishi sabablarini 2 kun ichida asoslash.

2.3.2. Ushbu shartnoma shartlariga muvofiq tovar va yetkazib berish xizmatlari uchun to'lovnini amalga oshirish.

2.3.3. Agar tovar "Obunachi"ning pochta qutisiga yetkazib berilishi lozim bo'lsa "Yetkazib beruvchi"ga "Obunachi" pochta qutisining raqami va joylashgan joyini ma'lum qilish.

2.4. "Obunachi"ning xuquqlari:

2.4.1. Tovarlarni oglandan so'ng, nuqsonlar aniqlanganda o'zining hohishiga ko'ra quyidagilardan birini talab qilish:

- buyurtmaning narxini nuqsonli tovar narxiga mutanosib ravishda kamaytirish;

- xuddi shunday, lekin nuqsonsi tovar bilan almashtirish;

- nuqsonli tovar uchun to'langan mablag'larni qaytarib olish;

2.4.3. Ushbu talablar "Obunachi"ning tegishli talabnomasi berilgan kundan boshlab 20 kundan kechiktirmay bajariladi.

2.4.4. Tovar yetkazib berilmagan taqdirda, obunachi quyidagilardan birini tanlash huquqiga ega:

a) yangi yetkazib berish sanasini belgilash;

b) nuqsonli tovar uchun to'langan mablag'larni qaytarib olishni talab qilish.

Bu talablar "Obunachi"ning tegishli talabnomasi berilgan kundan boshlab 20 kundan kechiktirmay bajariladi.

3. ShARTNOMA NARXI, HISOB-KITOBLAR TARTIBI

3.1. Shartnomaning umumiyligi buyurtmanomaga muvofiq 4288260 (тўрт минчундоси учиш оғзигини сарсанадиган) so'm. (QQS bilan).

3.2. Tovar narxi va yetkazib berish xizmati "Yetkazib beruvchi" tomonidan belgilanadi va buyurtmanomada ko'rsatiladi hamda ushbu shartnomaning amal qilish davrida o'zgartirilmaydi.

3.3. "Obunachi", "Yetkazib beruvchi"ga to'lovlarni quyidagi tartibda amalga oshiradi:

- ushbu shartnomaning 100% miqdoridagi avans to'lovi ushbu shartnoma tuzilgan kundan boshlab 7 ish kuni mobaynida "Yetkazib beruvchi"ning bank hisob raqamiga o'tkaziladi.

3.4. "Obunachi" va "Yetkazib beruvchi" o'rtasidagi barcha to'lovlarni hisob raqamga pul o'tkazish yoki bank plastik kartasi orqali O'zbekiston Respublikasi "so'm"ida amalga oshiriladi.

3.5. Hisob varaq-fakturlar "Yetkazib beruvchi" tomonidan "Obunachi"ga O'zbekiston Respublikasi qonunchiligidagi belgilangan tartibda va muddatlarda taqdim etiladi.

3.6. Tomonlar shartnomaning oxirgi kunida ikki tomon uchun majburiy bo'lgan o'zaro solishtirma dalolatnama tuzishlari to'g'risida kelishib oladilar.

3.7. Ushbu shartnomada nazarda tutilgan hisob-kitob tartibi yetkazib beruvchiga tijorat krediti berish yoki yetkazib beruvchidan qonuniy yoki boshqa foizlarni olish uchun asos bo'lmaydi.

4. TOVARLARNI YETKAZIB BERISH VA QABUL QILISH TARTIBI

4.1. Tovar yetkazib beruvchi tomonidan taqdim etilgan, xududiy (tarkibiy) korxonalari (bo'linmalari) ro'yxati ilovasiga asosan quyidagi manzillardan biri bo'yicha yetkazib beriladi:

- Obunachi tomonidan belgilangan pochta qutisiga;

- _____ manzilga, agar ushbu manzilda obunachi tomonidan qabul qilib oluvchi mavjud bo'lmasa, tovarlar ushbu ko'rsatilgan manzildagi binoda joylashgan pochta qutisida yoki kirish eshigi oldida qoldiriladi.

- Obunachi o'zi olib ketish sharti bilan _____ manzilga xizmat ko'rsatuvchi aloqa bo'limiga.

4.2. Tovarni yetkazib berish usuli "Obunachi" tomonidan shartnoma tuzilgan vaqtida belgilanadi va buyurtmanomada ko'rsatiladi.

4.3. Tovarni yetkazib berish "Yetkazib beruvchi" tomonidan yoki "Yetkazib beruvchi" nomidan uchinchi shaxslar tomonidan amalga oshiriladi. Tanlangan yetkazib berish usuli bo'yicha yetkazib berish xarajatlari tovar bahosiga kiritiladi.

4.4. "Yetkazib beruvchi" tovari nashriyotdan yoki tovar chiqaradigan boshqa shaxsdan olingan paytdan boshlab davriy nashrlarning chop etilish chastotasini hisobga olgan holda "Obunachi"ga yetkazib beradi.

4.5. Hisobot oyi oxirda "Yetkazib beruvchi", "Obunachi"ga kalendar oyi davomida yetkazib berilgan tovar partiyasi uchun schet faktura yuboradi.

4.6. "Yetkazib beruvchi" belgilangan hujjatlarni "Obunachi"ga hisobot oyidan keyingi oyning 15-kunidan kechiktirmasdan taqdim etadi.

4.7. Ikki ish kuni ichida "Obunachi", "Yetkazib beruvchi" tomonidan yuritilgan hujjatlarini ko'rib chiqadi va yetkazib berilgan tovarlar miqdori bo'yicha e'tiroz bo'lmasa, o'rnatilgan tartibda rasmiylashtiradi va "Yetkazib beruvchi"ga qaytaradi. yetkazib berilgan tovarning miqdori yoki sifatiga e'tiroz bo'lsa, "Obunachi" hujjatlarga imzo chekishdan bosh tortishga va aniqlangan nomutanosibliklar to'g'risida dalolatnoma tuzishga haqli. Agar "Obunachi"dan belgilangan muddatda asosli e'tirozlar olinmasa, hisobot oyi uchun mahsulot "Obunachi" tomonidan izohsiz qabul qilingan deb hisoblanadi.

4.8. Agar obunachi belgilangan muddatda "Yetkazib beruvchi"ga yozma talabnama taqdim qilmagan bo'lsa, "Yetkazib beruvchi" tomonidan taqdim qilingan xujjatlarni imzolashdan bosh tortishga xaqli emas.

4.9. Tasodifiy yo'qotish yoki mahsulotga zarar yetkazish xavfining "Obunachi"ga o'tkazilishi tovari yetkazib berish usuli bo'yicha "Obunachi"ga yetkazib berish vaqtida sodir bo'ladi. Tovarga bo'lgan egalik huquqini "Obunachi"ga o'tkazilishi schet faktura imzolangan paytdan boshlab sodir bo'ladi.

5. MAHSULOT SIFATI VA QADOQLASH

5.1. Mahsulot yetkazib beriladigan qadoqlash mahsuloti ishlab chiqaruvchi nashriyot tomonidan belgilanadi va amalga oshiriladi.

5.2. Tomonlar "Obunachi"ga topshirilgan tovardan maqsadga muvofiq foydalana olmaslikka olib kelgan yaqqol nuqsonlarga ega bo'lgan hollarni tovarlarni qadoqlash shartlari buzilishi deb hisoblashga kelishib oladilar.

6. MAHFIYLIK

6.1. Taraflar bitimni bajarish chog'ida muayyan axborotning maxfiy xususiyatini boshqa tomonga majburiy xabardor qilgan holda bir tomonlama aniqlashga haqli.

6.2. Taraflar boshqa tarafning oldindan yozma roziligidan boshqa tarafning kelishuviga binoan olingan ma'lumotlarni oshkor qilmasligi, uchinchi shaxslarga o'tkazishi yoki o'z maqsadlari uchun foydalanishi mumkin emas.

6.3. Maxfiy deb tasniflangan vaqtida u allaqachon uchinchi shaxslar yoki ommaviy axborot vositalari tomonidan tarqatilgan yoki ochiqlangan taqdirda, tomonlar javobgar bo'lmaydi.

6.4. Ushbu bo'limda belgilangan shartlar shartnoma muddati davomida ham, kelishuv bekor qilingan kundan boshlab 3 (uch) yil mobaynida ham tomonlar uchun har qanday sababga ko'ra majburiydir.

7. TOMONLARNING JAVOBGARLIGI

7.1. Tomonlar ushbu shartnoma bo'yicha majburiyatlarni bajarmaganlik yoki lozim darajada bajarmaganlik uchun O'zbekiston Respublikasining amalidagi qonunchiligiga va ushbu shartnomaga muvofiq javobgardirlar.

7.2. "Yetkazib beruvchi" davriy nashrlarni chiqishi to'xtatilishi yoki vaqtinchalik to'xtatib turilishi, kechikishi, shuningdek taxririyat tomonidan bir tomonlama davriy nashrlarning chiqish davriyligi o'zgarganligi, belgilangan muddatda chiqarilmasligi va soni yoki sifat tasniflari o'zgartirilganligi bilan bog'liq majburiyatlarni bajarish imkonlari hollarda javobgar emas.

7.3. "Yetkazib beruvchi" tovarning mazmuni, shakli yoki boshqa mazmuni uchun obunachi oldida javobgar emas.

7.4. Tovar parametrlari (shakl, mazmun, davriy nashrlarning chiqish davriyligi yoki mahsulot chiqarishni kechiktirish) o'zgarganda, "Obunachi" bevosita taxririyatga yoki davriy nashrlarni chiqarayotgan shaxsga da'vo qilish huquqiga ega.

7.5. "Yetkazib beruvchi" ushbu shartnomaning 3.3-bandiga muvofiq "Obunachi"ning tovar uchun haq to'lash majburiyatlarini bajarmaganligi munosabati bilan bunday huquqbzurlik sodir etilgan hollarda tovar yetkazib berish shartlarini buzganligi uchun javobgar bo'lmaydi.

7.6. "Yetkazib beruvchi", "Obunachi"ning davriy nashrlari olinmaganligi yoki to'liq olmaganligi uchun javobgardir va 20 kun ichida "Obunachi" tomonidan qabul qilinmagan mahsulotni yetkazib berish bo'yicha "Obunachi"ning huquqiy talablarini bartaraf etadi.

7.7. Ushbu shartnomaning 7.6-bandiga muvofiq "Yetkazib beruvchi"ning tovar yetkazib berish talablarini buzganligi bilan bog'liq da'volari "Obunachi" tomonidan tovar yetkazib berilgan 20 kun ichida taqdim etilishi kerak. Bunday da'volar bo'limgan taqdirda, "Yetkazib beruvchi", "Obunachi"ning hisobot davrida tovar yetkazib berish tartibini buzish bilan bog'liq da'volarini qabul qilmaydi va javobgarlikdan ozod qilinadi.

7.8. To'lov shartlari, shu jumladan, avans to'lovini ushbu shartnoma doirasida amalga oshirmaganlik uchun "Obunachi" O'zbekiston Respublikasi qonun xujjatlari belgilangan tartibda javobgar bo'ladi.

7.9. Agar tomonlardan biri ushbu shartnoma bo'yicha majburiyatlarning bajarilmasligi yoki lozim darajada bajarilmasligi ikkinchi tomonning aybi tufayli sodir etilganligini isbotlasa, javobgarlikdan ozod etiladi.

7.10. "Obunachi" tomonidan nashrlarni yetkazib berish manzillari, telefon raqami noto'g'ri ko'rsatilgan bo'lsa, yetkazib berilmagan nashrlar uchun "Yetkazib beruvchi" javobgar bo'lmaydi. "Obunachi"ning manzili o'zgargan taqdirda "Yetkazib beruvchi"ga yozma ravishda xabar berishi shart.

8. FORS-MAJOR

8.1. Tomonlar o'z ixtiyorlarida bo'limgan fors-major holati, ya'ni zilzila, suv toshqini, yong'in, tabiiy ofatlar, epidemiya, harbiy harakatlar, hukumatning ayrim faoliyat turini ta'qiqlovchi qarorlari sababli shartnomaviy majburiyatlarini bajarmaganliklari uchun javobgar bo'lmaydilar. Bunda, o'ziga nisbatan fors-major holati yuzaga kelgan tomon ikkinchi tomonni 24 soat ichida yozma ravishda ogohlantirishi lozim. Shartnomani bajarish muddati, tomonlar kelishuviga ko'ra fors-major holati muddatiga uzaytirilishi yoki shartnomaga bekor qilinishi mumkin.

9. ShARTNOMA MUDDATI ShARTNOMANI O'ZGARTIRISH VA BEKOR QILISH

9.1. Shartnoma taraflar tomonidan imzolanganidan keyin kuchga kiradi va 2022 yil 31 dekabrgacha va hisob-kitoblar jihatidan, ularning to'liq amalga oshirilgunga qadar amal qiladi. Shartnomaning bekor qilinishi tomonlarning shartnoma bo'yicha bekor qilingunga qadar yuzaga kelgan majburiyatlar bekor qilinishiga sabab bo'lmaydi.

9.2. Shartnomaga kiritilgan barcha o'zgartish va qo'shimchalar yozma ravishda amalga oshirilib, har ikki tomon tomonidan imzolangan taqdirda amal qiladi. Tomonlarning tegishli qo'shimcha kelishuvlari shartnomaning ajralmas qismi hisoblanadi.

9.3. Tomonlar shartnomani (shartnomani bajarish) butunlay bir tomonlama bekor qilish huquqiga egadirlar.

9.4. Shartnomani bir tomonlama bekor qilish, bir tomon ikkinchi tomonga yozma xabarnoma yuborishi yo'li bilan amalga oshirilishi lozim. Agar xabarnomada boshqacha belgilanmagan bo'lsa, shartnoma ushbu xabarnoma olingan kundan boshlab 30 (o'miz) kalender kundan keyin bekor qilinadi.

9.5. Taraflar shartnomadan qisman bir tomonlama voz kechishga (shartnomani bajarishga) haqli yemas.

9.6. Shartnomaga har qanday o'zgartish va qo'shimchalar yozma ravishda kiritilib, taraflarning tegishlicha vakillari tomonidan imzolangan taqdirda amal qiladi. Bu holda taraflarning vakolatlari vakillari tegishli tarafning Ustavi (boshqa ta'sis hujjati) asosida harakat qiluvchi shaxslar, shuningdek o'rnatilgan tartibda rasmiylashtirilgan ishonchnoma asosida harakat qiluvchi shaxslar hisoblanadi.

9.7. Tomonlar kelishuvni imzolagandan so'ng, u bo'yicha barcha dastlabki muzokalar, yozishmalar va dastlabki kelishuvlar yuridik kuchga ega bo'lmaydi.

10. NIZOLARNI HAL QILISH TARTIBI

10.1. Shartnoma bandlarini bajarish yuzasidan kelishmovchiliklar kelib chiqqan taqdirda, tomonlar ularni muzokara yo'li bilan hal etishni zimmalariga oladilar. Shunda umumiy yechimga kelishishning imkoniyati bo'lmasa, masala O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunlari asosida Toshkent tumanlararo iqtisodiy sudi orqali hal qilinadi.

11. BOShQA QOIDA VA ShARTLAR

11.1. Shartnoma bir xil yuridik kuchga ega bo'lgan 2 (ikki) nusxada, taraflarning har biri uchun bittadan oddiy yozma shaklda tuziladi.

11.2. Shartnoma O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq boshqariladi va sharhlanadi. Shartnomada ko'rsatilmagan munosabatlarda tomonlar O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga asoslanadi.

11.3. Agar tomonlardan biri pochta, aloqa yoki to'lov rekvizitlarini o'zgartirsa yoki qayta tashkil etish yo tugatilishi lozim bo'lsa, boshqa tomonni ushbu o'zgarishlar kuchga kirgan kundan boshlab 2 (ikki) ish kuni ichida yozma ravishda xabardor qilishi shart (qayta tashkil etish yoki tugatish holatida tegishli qaror qabul qilingan kundan boshlab 1 (bir) ish kuni ichida). Taraflardan birining ushbu bandda nazarda tutilgan majburiyatning boshqa taraf tomonidan bajarilmasligi bilan bog'liq zararlari aybdor shaxs tomonidan qoplanadi.

12. TOMONLARNING REKVIZITLARI

"YETKAZIB BERUVChI"

"O'zbekiston pochtasiga" AJ Qoraqalpog'iston filiali
Nukus shahar pochta aloqa bog'lamasi
Manzil: Ota yo'li ko'chasi, 2 uy

H/r: 22 612 000 900 155 266 547
AT "Aloqabank"ning
Amaliyot boshqarmasi
MFO: 00401; INN: 200 833 833
OKED: 53100
Telefonlar:
Obuna bo'limi: +99861-222-04-17
Buxgalteriya: +99861-226-03-70

Nukus pochta aloqa bog'lamasi
boshlig'i E. Ganiev

Yurist



"OBUNAChI"

NUKUS SHAHAR POCHTA ALQAROQ ALAMIYATI QORAQALPOG'ISTON FILIALI

Manzil: EXHOLOGIYALI AY UNIVERSITETI FURUS FILIALI

manzil: Nukus shahar pochta aloqa bo'li chasi, 7-uy

H/R: O'ZB. Moliya vazirligi g'aznachiligi

STIR: 205771844 MFO: 00014 XXTUT: 92110

MFO: 92110 Moliya vazirligi bank BBXKKM Toshkent shahri

INN: _____

OKED: _____

Telefonlar:

faks

E-mail:

Veb-sayt: _____



мөббекун кагане курсанова садат



Обуна қабул килинсін

сум * ТИЙИН
рошлик
Роэлик
(ИМ33)

Матбуот тарқатиши бўлимига

БҮЮРТМА

Хизмат эхтиёжи учун

Ш МТ-16

Қабул қилинган обунаға тұлов ҳажми

201 ____ й. _____
201 ____ й. _____
201 ____ й. _____

Катта ҳисобчи

(имзо)

Озми (номи)
Мухаммад ан-Хорезими именува ся ТАТЫ Күкүс д.
(корхона, ташкилот номи)

(корхона, ташкилот номи)


Манзилгоҳи:
Чукус ми Абсолютарб үч
Куйилдагы ойнома ва рўзномалар

Телефон 61222-4910

Қүйидаги ойнома ва рўзномаларга обуна қабул қилишингизни сураймиз

201 й.

Сонлар рақами	Нашрлар номи	Нусхалар сони	Нече ойга	Нархи		Етказиб бериш варақаси сони МТ-да тұлатиласы
				сүм	тийин	
	Яңы Узбекшесінде 4 жобадар	2 20	Бөлігде 1246800 Бөлігде 5041460			



4288260

Жами.....

Обуна ҳаки хабарнома олингандан сүнг тұланади

(Бошпик имзоси)

201 йил «_____»

(хисобчи имзоси)

Етказиб бериш варакаси тұлатылды:

201 ЙИЛ « _____ (имзо)